

YOSHLAR ONGIDA MILLIYLIKKA BO'LGAN ISHONCHNI KUCHAYTIRISHDA AXLOQNING O'RNI

Asliddin Xidirov,
Begmat Mamatmurodov,
Elyor Mamatqulov,
Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalari
Ilmiy rahbar: **Azamatjon Xudaynazarov** –
TVCHDPI o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlar uchun yod bo'lib borayotgan milliylikka bo'lgan ishonchi oshirishdagi axloqning o'rni va roli haqida fikrlar bayon etilgan. Shu bilan birgalikda, yoshlarimizning milliylikka bo'lgan qarashlari xususida so'z yuritilgan. Milliyligimizni o'rganishda axloqning naqadar muhim o'rin tutishi to'g'risida fikrlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, axloq tushunchasiga batafsil to'xtalgan adiblar nomlari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, axloq, ishonch, axloqiy tuzilma, qadriyat, nominal

Abstract: This article discusses the role and place of ethics in building confidence in a nation that is being memorized by young people today. At the same time, the views of our youth on nationalism were discussed. At the same time, there are ideas about the importance of morality in the study of our nationality. It also lists the names of writers who elaborate on the concept of morality.

Key words: nationality, ethics, confidence, moral structure, value, nominal

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir. Bu kabi buyuk ajdodlarimiz hayotida axloq nihoyatda muhim o'rin tutgan.

Ma'lumki, milliylik xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho, ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan milliylikni asrash va kamol toptirishda axloqning o'rni nihoyatda muhim ekanligiga yana bir bor amin bo'lmoqdamiz. Milliy an'analar barhayot bo'lishi uchun eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ravshanki, ko'ngilda Vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand "Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim" deyilgani bilan bizdagi mehr-u sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab ketadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzandnafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir"[1, 85]. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxt-u-saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Shaxs va jamiyatning barcha tomonlarni axloqiy baho berishga qodirligi tufayli, jamiyat hayoti iqtisodiy-siyosiy,

ma'naviy shuningdek, diniy, ilmiy, estetik va boshqa maqsadlarni axloqiy asoslash uchun axloq jamiyat hayotining barcha sohalariga kiradi. Hayotda insondan jamiyatga xizmat qilishni talab qiladigan xulq-atvor normalari va qoidalari mavjud. Ularning paydo bo'lishi va mavjudligi odamlarning birgalikdagi, jamoaviy hayotining obektiv zarurati bilan bog'liq.

O'zbek qadriy me'zonlar tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri katta yoshli, keksa kishilarga hurmat va izzat bilan qarashdir. Ko'p hollarda bobolar va buvilar oilaning nominal boshliqlari hisoblanadi. Oilaning barcha a'zolari ularning qarorlari va maslahatlariga quloq soladilar. Bayramlarda keksa yoshdagi insonlarni ziyorat qilish, ularning holidan xabar olish ayniqsa saqlanib qolmoqda. Bu orqali yoshlar ongiga milliylikga bo'lgan qarashlar chuqur singdirilmoqda. Bu esa, axloqning muhim qoidalaridan biridir.

Bugungi kunda jamiyatda yaxshilikka intilib yomonlikdan tiyilish, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, zo'ravonlikdan voz kechish va hayotni hurmat qilish, hamjihatlik va ijtimoiy adolatga asoslangan tartib o'rnatish, sabr-toqat va bag'rikenglik, burch va mas'uliyat bilan inson omilini to'liq ro'yobga chiqarish qadriyat darajasiga ko'tarildi va bunday ma'naviy muhitni qaror toptirish ahamiyati kun sayin o'sib bormoqda. Zeroki, axloqiy ong va munosabat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy-siyosiy muloqot va o'zini o'zi anglash, tanqidiy fikrlar orqali o'z-o'zini baholash, o'zini takomillashtirish zarurati jamiyatning ma'naviy axloqiy muhitini, uning qiyofasini va ijtimoiy taraqqiyotining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Inson o'z o'zini tashkillashtiruvchi bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turuvchi murakkab sistemadir. U bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy-organik, ijtimoiy va shaxsiy, ruhiy va axloqiy tuzilmalarning bir butunligidan tashkil topgan. Ushbu tuzilmalar uyg'unligi o'z o'zini tashkillashtirish va takomillashtirish imkonini oshiradi. Jadidchilikning yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy ta'kidlab o'tganidek, "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir"[2, 6]. Axloqiy tuzilma boshqa tuzilmalar singari o'z o'zini tashkillashtirishi turli usullar bilan yuzaga keladi. Ma'naviy qadriyatlar va milliylik shunday usullardan biri hisoblanadi.

Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so'z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita yoki bilvosita inson faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib hamda takomillashib boradi. Yoki aksincha, eskirib, umrini o'tab zavolga yuz tutadi. Ayni paytda jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u toki odamzotning ongli hayoti mavjud ekan hech qachon zavol bilmaydi. Shuning uchun ham uni o'ta noyob fonomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrlanib kelgan axloqdir.

Axloq haqida Markaziy Osiyo fiqh maktabining yetuk siymolaridan biri Burhonuddin al-Marg'inoniy shunday fikrlarni keltirib o'tgan, "Axloqsiz odam katta fasoddur". Axloqni yoshlar ongiga singdirishda esa oilaning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Axloqi, ta'lim-tarbiyasi yaxshi bo'lgan har bir yosh ongida milliylikga bo'lgan e'tibor yaqqol namoyon bo'lib turadi. Ular ongida Vatanni sevish, uni ardoqlash kabi tushunlar paydo bo'ladi va inson bilan birgalikda rivojlanib o'sib boradi. Insonlarning axloqqa va milliylikga nisbatan ishonchsizliklari ularning bu haqdagi bilimlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Qachonki, ular bu tushunchalar inson uchun naqadar muhim ekanligini his qilsalar, ularning fikrlashlari tubdan o'zgarib boshqalarga ham axloqiy qadriyatlar va milliylikni targ'ib qiladilar. Bu orqali ular jamiyatga o'zlarining hissalarini qo'shadilar. Yoshlarimiz esa milliylikning axloqiy ko'rinishlarini chuqur his etgan holda o'zlariga singdirib boradilar. Aynan mana shuning uchun ham yoshlarimiz ongida milliylikga bo'lgan ishonchni oshirishda axloqning o'rni nihoyatda beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1998. – B.85.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: 2017. – B.6.
3. www.ziyonet.uz
4. <https://uz.warbletoncouncil.org/etika-322>
5. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон – таракқиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022 – Б. 293.
7. Karimov D. (2022) O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). [Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori](#) // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) [Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии](#). Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan](#). International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Адамбаев Умидбек. (2022) [Ишонч-этикодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири](#) / Scientific progress. – pp. 348-351.
15. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) [Экологик маданият ва уни шакллантириш](#) // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) [Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati](#). Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) [Ишонч-этикодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни](#) // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баходир Мирзаевич Қандов. (2021) [The importance of forming an active civic position among young people](#). Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). [Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization](#) // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) [Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty](#). – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.

23. Adambayev U. (2022). Etnomadaniyatning insonlar hayotida tutgan o'rnini. Scientific Progress, 519-521.
24. Togayev Shavkat Hurrarovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) [The role of education in the development of environmental consciousness of a person](#). ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) [Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic](#) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Adambayev U.X. (2022) Zamonaviy dunyo: ijtimoiy tarmoqlar inson resurslarini boshqaradi. Scientific Progress, 499-501.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich (2022). [Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan](#) // International Journal of Development and Public Policy. – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academicia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) [Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan](#). EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021) [Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb](#) // Экономика и социум. – С.18-21.